Orqa miya topografiyasi

Markaziy nerv sistemasining umurtqa kanali ***(canalis vertebralis)*** ichida joylashgan qismiga ***orqa miya*** deb aytiladi. Orqa miya uzunligi 41-45 sm bo'lib, silindrik shaklga ega. Diametri – 1-1,5 sm. Orqa miyaning ustki chegarasi katta ensa teshigi ***(foramen occipitale magnum),*** ya'ni uzunchoq miyaning pastki qismida joylashgan piramidal kesishuv ***(decussatio pyramidum)*** sohasiga to'g'ri keladi. Bu joy C_1 bo'yin umurtqasining ustki qismi bo'lib, undan birinchi bo'yin segmenti C_1 ildizchasi chiqadi. Orqa miyaning pastki chegarasi konus ***(conus medullaris)*** shaklida kichrayib boradi va L_2 umurtqaga yetmasdan tugaydi. So'ngra terminal ip ***(filum terminate)*** boshlanadi.



4.1-rasm. Orqa miya segmentlari va ildizchalari

Orqa miyada ikkita kenglik farqlanadi ***(4.2-rasm):*** bo'yin kengligi ***(intumescentia cervicalis)*** va bel kengligi ***(intumescentia lumbalis).*** Bo'yin kengligi C_{5-8}, Th_1 segmentlardan tashkil top-gan bo'lib, qo'llarning segmentar innervatsiyasini ta'minlaydi. Bel kengligi Th_{12}, L_{1-5}, S_{1-2} segmentlardan iborat bo'lib, oyoqlar segmentar innervatsiyasiga mas'ul.



4.2-rasm. Orqa miyaning uzunasiga tuzilishi sxemasi *1 – bo'yin qismi; 2 – intumescentia cervicalis; 3 – ko'krak qismi; 4 – intumescentia lumbalis; 5 – conus medullaris*

Manba: © Z. Ibodullayev. Nevrologiya. Qo`llanma. Toshkent, 2017., 404 b.
© Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.
© Ibodullayev ensiklopediyasi © www.asab.uz